

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SHARQ VA G‘ARB ADABIY ALOQALARI  
VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKNING  
DOLZABR MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**MATERIALLARI**

**CURRENT ISSUES OF LITERARY RELATIONS  
BEETWEEN EAST AND WEST AND  
COMPARATIVE LITERARY STUDIES**

**PROCEEDING**

**OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE**



**2026  
MAY 23**

**SAMARKAND, UZBEKISTAN**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SHARQ VA G‘ARB ADABIY ALOQALARI VA  
QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**2026-yil 23-may**

**Samarqand – 2026**



**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И  
ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЛИТЕРАТУРНЫХ  
ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ВОСТОКА И ЗАПАДА И  
СРАВНИТЕЛЬНОГО ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ**

**Международная научно-практическая конференция**

**23-мая 2026 года**

**Самарканд – 2026**

**UO‘K: 82.091:821.531**

Samarqand davlat chet tillar instituti. “Qiyosiy adabiyotshunoslik” va “Koreys filologiyasi” kafedralari hamkorligida. Sharq va g‘arb adabiy aloqalari va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2026-yil 23-may. Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti. – 2026, 811 bet.

*“Sharq va g‘arb adabiy aloqalari va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallarida Sharq va G‘arbning adabiy aloqalari, qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta’sir va ijodiy izdoshlik, qiyosiy tilshunoslik sohasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, til va tarjima, madaniyat sohasidagi mavjud muammolar va ularning yechimlari, mazkur yo‘nalishdagi xalqaro tajribalar va ularning o‘rganilishi kabi masalalar yoritilgan. Ushbu to‘plam xalqaro va respublika miqyosida sohasida professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish imkonini beradi va bu boradagi izlanishlar uchun tadqiqot manbasi sifatida xizmat qiladi.*

**Bosh muharrir: E.R. Musurmanov**

**Mas’ul muharrir: S.S. Saydazimova**

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

Professor **B.A.Xolikov** rais  
Professor **O.G‘aybullayev** rais o‘rinbosari  
Professor **E.M.Musurmanov** mas’ul muharrir  
Professor **U.D.Qarshibayeva** a’zo  
Professor v.b **M.Xalova** a’zo  
Professor v.b. **I.M.Pardayeva** a’zo  
Dotsent **D.X.Alimova** a’zo  
Dotsent **H.A.Aslanova** a’zo  
PhD **S.Saydazimova** mas’ul kotib

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldirlar.*

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2026

1. Hong, Y. H. (2016). Kore Akımı sonrası K- Edebiyatının Estetik Arketipi. Eleştirel Edebiyat, 61, 256-287 (홍 용희 (2016 ) 포스트 한류와 K-literature 의 미학적 원형 탐색,비평문학 제 61 호 p. 265 - 287

2. Köroğlu Türközü, H. (2011, Mayıs, 5-6). Türkiye’de Kore Edebiyatı Üzerine Araştırmalar, Tercüme, Eğitim Faaliyetleri Ve Sorunlar. 1. Uluslararası Asya Dilleri ve Edebiyatları Sempozyumu, Kayseri, Türkiye.

3. Köroğlu Türközü, H. (2017). Türkiye’de Kore Edebiyatı Araştırmaları. M.E. Gökmen ve P. Altundağ (Ed), Türkiye’de Kore Çalışmaları 1 (s.153-164) içinde. Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Yayınları.

4. Köroğlu Türközü, H. (2018, Temmuz, 2-3). Kore Savaşının Türk Edebiyatına Yansıması Üzerine Bir Değerlendirme. Uluslararası İpek Yolu Sempozyumu, İstanbul, Türkiye.

## CHUXE KIM VA TOG‘AY MUROD ROMANLARIDA DAVR MUHITI TASVIRI

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*  
*Koreyashunoslik oliy maktabi professori*  
**DSc Umida SAYDAZIMOVA**  
[umidsayd75@gmail.com](mailto:umidsayd75@gmail.com)

**Annotatsiya.** “Kichik zamin yovuzlari” romani kisenlar, tog‘ ruhiga aylangan yo‘lbarslar, vatanparvarlar, vatan xoinlari taqdiriga bag‘ishlangan. Yozuvchi kichik zaminda yashayotgan xalqining mardonavor kurashlari, katta kurash yo‘lida o‘z jonidan kechgan kisenlar, inson hayotida arziyas ko‘ringan uchrashuvlarning ulkan mohiyati, inson taqdiriga ta‘sirini mohirona yoritgan. “Otamdan qolgan dalalar” romani uch avlod vakillarining biri-biridan og‘ir hayoti, matn ostiga olingan, “paxta” yetishtirish uchun qizlik, ayollik latofatidan, onalik baxtidan kechgan o‘zbek ayoli taqdiriga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** ovchi, yo‘lbars, kichik zamin, kisen, oq podsho, qizil imperiya, sho‘rolar davri, paxta.

**Abstract.** The novel “*Beasts of a Little Land*” is dedicated to the fate of kisaeng figures, tigers transformed into mountain spirits, patriots, and traitors of the homeland. The writer masterfully depicts the courageous struggles of the people living in a Little Land, the kisaeng who sacrificed their lives in the path of a greater struggle, the profound significance of seemingly insignificant encounters in human life, and their impact on human destiny. The novel “*Fields Left by My Father*” is devoted to the life of three generations, each bearing an increasingly difficult fate. It focuses on the destiny of Uzbek women who, under the pressure of cotton production, had to sacrifice their girlhood, feminine grace, and even the happiness of motherhood.

**Keywords:** hunter, tiger, little land, kisaeng, White Tsar, Red Empire, Soviet era, cotton.

Yozuvchi Chuxe Kim o‘zining “Kichik zamin yovuzlari” romanida xalqining azaliy urf-odatlarini, an‘analari, ayniqsa, kisenlik masalasini yangi talqinda, yangi muhitda berish orqali XX asr koreys millati taqdiri haqida yaxlit manzara hosil qiladi. Kisenlarning ruhiyati, ijtimoiy hayotdagi faoliyati, yapon anneksiyasi davrida ularning o‘ziga xos tabiatini ochib berishda yozuvchining mahorati ko‘zga tashlanadi. Romanda tasvirlangan har bir voqea jonli, ta‘sirli bo‘lib, yozuvchi ortiqcha mubolag‘a yoki ortiqcha lavhalar bilan kitobxonni chalg‘itmaydi. Avvalambor oilaviy sharoit, qolaversa o‘z ixtiyoriga ko‘ra, kisenlikni tanlagan Yashma obrazida davr ayollarining xohish-istaklari, sarobga aylangan orzular, erk va ozodlik yo‘lida erkaklardan kam harakat qilmagan kisenlar hayoti ochib beriladi.

“Kichik zamin yovuzlari” romanida XX asr boshi koreys jamiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar fonida kitobxon ko‘z o‘ngida Koreya tarixi va madaniyatidan yangi sahifa ochiladi. Roman voqealari 1917-yil yapon istilosi ayni avjiga chiqqan davrdan boshlab tasvirlanadi.

Olis qishloqdagi dehqon oilasi ro‘zg‘ordagi yetishmovchilik, kambag‘allik sababli to‘ng‘ich qizlarini o‘n yoshga to‘lganida kisenlar (romanda kurtizan tarzida berilgan) maktabiga sotishga majbur bo‘ladi. Ona o‘z qizini mehnat qilishga, ro‘zg‘or tebratishga, bola parvarishi bilan shug‘ullanishga erta o‘rgatgan bo‘lsa-da, oxirgi tanlov qizning ixtiyorida edi. Qiz o‘ylanib o‘tirmadi, u kisenlikni tanladi.

Roman 1917-yil voqealari bilan boshlanadi. Yozuvchi olamni oq va qora ranglarga ajratadi: “Quyosh chiqishidan oldin dunyoning ilk yaralishi kabi Osmon – oq edi, Zamin esa – qora”<sup>75</sup>. Yozuvchi tomonidan asarning birinchi bobiga kiritilgan ovchi obrazida yapon anneksiyasi davrida halol, mehnatkash, to‘g‘riso‘z insonlar gavdalanadi. Ovchi uchun ona zaminning har bir qarich tuprog‘i, kindik qoni to‘kilgan joy aziz. Mamlakati boshiga kelgan og‘ir kunlar, xalqidan tortib olingan ozodlik, umummillat fojiasiga sabab bo‘lgan tashqi va ichki omillar dastlab ovchi, keyin uning zurriyodi Chonxo obrazida xronologik tartibda beriladi.

Romanning “Kichik zamin yovuzlari” sarlavhasida muallifning asosiy g‘oyasi o‘z ifodasini topgan. Taraqqiyotdan olis tog‘ yonbag‘ridagi qishloqda ovchilik bilan kun kechiradigan ota, otameros – ovchilik bilan shug‘ullanishiga ta‘qiq qo‘yilgan, ovchilik anjomlari tortib olingan o‘g‘il – Chonxo, taqdiri noma‘lum – nevara oldida muhim savol tug‘iladi, “kindik qoni to‘kilgan ona zamin kimniki?”.

O‘zbek adibi Tog‘ay Murod o‘zining vatanparvarlik ruhida yozilgan “Otamdan qolgan dalalar” romanida hayotning osuda va sofligini ariq detalida beriladi:

“Yo‘l ariq yoqalab o‘tadi. Yo‘l majnuntol soyalab o‘tadi.

Bobomiz ana shu yo‘ldan sahar-sahar dalalaydi.

Tolga xurjun iladi. Tahorat oladi. Qiblatlab belbog‘ yoyadi.

Cho‘lpon yulduz poyida quloq qoqadi. Cho‘lpon yulduz poyida sajda etadi”<sup>76</sup>.

Tog‘ay Murod o‘z romanida koreys yozuvchisi kabi masalani ilgari suradi. Yozuvchi romanini “Otamdan qolgan dalalar” deb nomlaydi, o‘z yeriga egalik qilish huquqidan mahrum qilingan “paxtakor”ning ayanchli taqdirida o‘zbek millatining zahmatkash dehqoni zimmasiga yuklatilgan og‘ir muammoni ochib beradi, u ham “dalaning egasi kim?”, tarzidagi savolni o‘rtaga tashlaydi. Romanda takrorlanuvchi oq, qizil, qora ranglar inson taqdirini belgilovchi detal tarzida berilgan. O‘zbek xalqining boshidan kechirgan butun boshli zo‘ravonlik, xo‘rliliklari oq-qizil-qora rangga ajratilishi ramziy ma‘no kasb etgan.

Koreys yozuvchisining romani prolog, 10 bobdan iborat 1-tom, 10 bobdan iborat 2-tom, 5-bobdan iborat 3-tom, 2 bobdan iborat 4-tom, epilogdan tashkil topgan. An‘anaviy romanchilikka ko‘ra, har bir bobga sarlavhalar qo‘yilgan. Tog‘ay Murodning romani esa “Asar X bobdan iborat bo‘lib, jami 273 ta kichik hajmdagi qismlarga bo‘lingan...22 ta mayda qismga ajratilgan I bob Xon davrida tong saharda Cho‘lpon yulduz poyida sajda qilib, qosh qorayguncha yer chopgan Dehqonqulning bobosi, farg‘onalik Jamoliddin ketmonni Chor Rossiyasi bosqini natijasida halovati buzilib, Denovga kelib qolish sababi bilan bog‘liq voqealar – xalq qo‘zg‘oloniga bosh bo‘lgan Mulla Namoz, Oqqoshsho, Kayshovskiy 32 yoshida (1876-77-yillar Qo‘qonni zabt etgan) general Skobelov, polkovnik Chaykovskiy, O‘rusiya Moliya vaziri Vishnegorodskiy, missioner Ostroumov kabi tarixiy shaxslar ishtirokida hikoya qilingan”<sup>77</sup>.

Chuxe Kim qalamiga mansub romanning 1-tomi avval Koreya imperiyasi (yapon anneksiyasiga qadar, ya‘ni 1897-1910-yillar davomida Koreya davlatining nomlanishi) armiyasi safida xizmat qilgan ovchi, uning oilasi, samuraylar avlodiga mansub, asarning barcha tommlarida eng faol obrazlardan biri bo‘lgan yapon kapitani Yamada Gendzo, Yaponiya imperiyasi armiyasi marshali Koreya general-gubernatori (1916-1919) Xasegava Yosimiti (1850-1924)ning yaqin do‘sti bo‘lgan otasi, mayor Xayasi, mahalliy politsiya boshlig‘i Fukuda kabi tarixiy shaxslar, qashshoq oilaning to‘ng‘ich qizi Yashmaning kisenlik maktabiga tarbiyalanuvchi sifatida topshirilishi voqealariga bag‘ishlangan. Mazkur bobda 1917-1925-yillarga qadar mamlakatda sodir bo‘lgan

<sup>75</sup> Чухе Ким. Звери малой земли. Серия «Loft. Азиатский бестселлер». Эксмо; Москва; 2024. ISBN 978-5-04-199400-6. – С. 8.

<sup>76</sup> Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. “Шарк” нашриёти-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент. 1994. – Б. 3.

<sup>77</sup> Ахрарова Л. Ҳамма билган, аммо ҳеч ким гапирмаган ҳақиқат (Тоғай Муроднинг “Отамдан қолган далалар” асари ҳақида). Academic Research in Educational Sciences. Vol.1. No.2. 2020 ISSN 2182-1385. – Б. 3.

voqealar, ayniqsa, 1919-yil 1-mart harakatlari tasviriga, mazkur harakatda faol ishtirok etgan shaxslar qatorida kisenlar ko'rsatgan qahramonlikka alohida urg'u beriladi.

Romanning 1-tomi davomida 1925-1937-yillar mamlakatda olib borilgan turli mafkuraviy harakatlar, olis qishloqlardan bir burda non topib yeyish ilinjida shaharga kelgan, ammo, bezorilar safiga qo'shilib ketgan yoshlar, xususan, ovchining o'g'li Chonxo, kisenlik maktabi tarbiyalanuvchilarining zamon bilan hamnafas bo'lib, yangi bosqichga ko'tarilgan teatr san'ati rivojidagi o'rni, mumtoz davr koreys qissalarining teatr sahnalarida jonli ijro etilishi, davr yoshlarining yangi ilm va bilim izlab xorijiy davlatlarga tashrif buyurishlari, xorijda birga tahsil olgan vatandoshlarning o'z yurtiga qaytishi, kimdir tadbirkorlik yo'lga, kimdir davr ko'zgasiga aylangan nashriyot ishlarini rivojlantirishga, kimdir ota merosini mamlakat ozodligi yo'lida qurol-aslaha uchun sarflagani, yoshlar o'rtasida turli fikrlilikning yuzaga kelishi hikoya qilingan.

“Kichik zamin yovuzlari” romanining 3-tomida 1941-1948-yillarda yapon general-gubernatori tomonidan barcha koreys fuqarolariga o'z ism-shariflarini yaponcha ism-sharifga o'zgartirishga berilgan buyruq, odamlarning o'z boshini omon saqlab qolish, yashab qolish ilinjida oilasi, yaqinlari, vataniga xiyonat qilishi, o'zaro ishonchsizlikning avj olishi bayon qilinadi. Mazkur bobda o'z ixtiyoriga ko'ra, kisenlik yo'lini tanlagan Yashmaning avvalo o'ziga ishonch bildirgan, tarbiyalagan ustoziga, samimiy muhabbatini bag'shida qilgan insoni oilasi tomonidan rad etilishi, do'sti Chonxoga bo'lgan sadoqati, og'ir kunlarida Chonxo ko'rsatgan yordami tasviri berilgan. Shu bilan birga mamlakatda iqtisodiy sharoit o'zgarib boshlagani, ammo, ikkinchi jahon urushi sabab yana tanazzulga yuz tutgan ishlab chiqarish, yapon hukumatining hududni tashlab chiqib ketishi, ilk mustaqillik yillari voqealari jonli berilgan.

Asarning 4-tomi 1964-yil xaos davriga bag'ishlangan. Mazkur bobda bir vaqtlar kisen Yashma ko'rsatgan amaliy yordam – o'qishi uchun to'lovni amalga oshirib bergani sababli yangi bilimlarni o'zlashtirgan, o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ya olgan, kutilmagan merosni qo'lga kiritgan, bugungi kunda to'kin-sochin hayot kechirayotgan Xanchxolning oilasi, qiyin vaziyatga tushib qolsa-da, undan yordam kutmagan Yashmaning o'z do'sti Chonxo hayotini saqlab qolish uchun unga murojaat qilishi, ammo, bu murojaatning javobsiz qoldirilishi, Chonxonning o'limga mahkum etilishi, Yashmaning esa eng yaqin kishilarini yo'qotgani sababli Seuldek katta shaharda qola olmasdan, Chejudo oroliga ketishi, yangi muhitga, sharoitga moslashishi, shu hududda yosh bir ayolning unga o'z farzandini qoldirib, qochib ketishi bayon qilingan. Yozuvchi Xanchxol, Vyun kabi obrazlarda inson taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-tarixiy sharoitni to'laqonli ochib bergan. Bu obrazlarga boshlariga og'ir kunlar kelganida ham o'z or-nomusi, mamlakat ozodligi uchun kurashgan insonlar taqdiriga befarq bo'lmagan kisenlar obrazi qarama-qarshi qo'yiladi.

Tog'ay Murod romanida ayollar obrazi tagmatnda beriladi. Ularning achchiq qismati esa mana bu dialogda o'z aksini to'la topadi:

Achchiq bilan qizimizni yelkalaridan dast ko'tarib oldim.

– Senga aytyapman, tiling bormi? Enang qani deyapman?!

Qizimiz o'pkasini bosolmayin aytdi:

– Enam o'ziga o't qo'yib yubordi.

– Nima-nima?! Qayerda-qayerda?!

– Tuman olib ketdi.

– Momong qani?!

– Momom enam bilan ketdi<sup>78</sup>.

Orzulari armonga aylangan, ham paxta dalasida, ham uyida boshi samarasiz mehnatdan chiqmagan, nain-ki, atir-upa, uni yangi ko'ylak ko'rmay o'tgan, turmush sitamlariga bardosh bera olmagan o'zbek ayolining achchiq qismati o'ziga o't qo'yish bilan yakunlandi.

Chuxe Kim o'z romanida koreys tarixining eng og'ir, zalvorli yillari – Choson sulolasining so'nggi nafasi, Koreya imperiyasi, yapon anneksiyasi, ozodlik uchun kurash yillari, qisqa ozodlik davri, ikkinchi jahon urushi, fuqarolar urushi, xaos davri tafsilotlarini tasvirlagan. O'zbek adibi Tog'ay Murod ham mislsiz xo'rliklar davrini boshlab bergan Oq podsho davri, rus chorizmining xalq boshiga solgan dahshatli kunlari, Qizil imperiyaning salbiy asoratlari, sho'rolar, “sotsialistik

<sup>78</sup> Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. “Шарқ” нашриёти-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент. 1994. – Б. 106.

davr” qurboni sodda xalqining kelgindilar tomonidan oyoq osti qilinishi haqida yozdi. Koreys yozuvchisi itoatdan boshqasini bilmaydigan omi xalqi, o‘zbek yozuvchisi esa bosh ko‘targani uchun so‘zsiz qatl qilingan xalqining mehnat ijrochisiga aylanganini qalb dardi bilan yoritdi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Чухе Ким. «Звери малой земли». Серия «Loft. Азиатский бестселлер». Эксмо; Москва; 2024. ISBN 978-5-04-199400-6.

2. Тоғай Мурод. “Отамдан қолган далалар. “Sharq” нашриёти-матбаа концернининг бош тахририяти. – Тошкент. 1994.

3. Аҳрарова Л. “Ҳамма билган, аммо ҳеч ким гапирмаган ҳақиқат (Тоғай Муроднинг “Отамдан қолган далалар” асари ҳақида). Academic Research in Educational Sciences. Vol.1. No.2. 2020 ISSN 2182-1385.

### **TAZKIRALARDA TANQIDIY YONDASHUV VA BADIY BAHOLASH MEZONLARI (“LATOIYFNOMA” MISOLIDA)**

*Bobur QURBONOV,*

*SamDChTI, Yaqin sharq tillari kafedراسи mudiri, PhD*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tazkira janridagi asarlarda uchraydigan tanqidiy fikrlar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mualliflarning shoirlarga nisbatan bildirgan salbiy baholari ularning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlanadi. Shuningdek, buyuk tazkiranavis adiblar - Alisher Navoiy va Faxriy Hiraviy uslublarining o‘ziga xos jihatlari, tanqidni ifodalash shakllari va ularning mazmuniy xususiyatlari keng yoritiladi. Natijada, tazkiralardagi tanqidiy fikrlar shaxsiy baho emas, balki jamiyatda ma’naviy me’yorlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita ekanligi asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** tazkira, tanqid, axloqiy g‘oya, uslub, Navoiy, Faxriy, sharh, tavsif, adabiy meros.

**Аннотация.** В данной статье анализируются критические суждения, встречающиеся в произведениях жанра тазкира. В ходе исследования установлено, что отрицательные оценки, данные авторами в отношении поэтов, тесно связаны с их нравственно-воспитательными взглядами. Кроме того, подробно освещаются своеобразные особенности стиля великих тазкироведов и писателей — Alisher Navoiy и Faxriy Hiraviy, формы выражения критики и их содержательные характеристики. В результате обосновывается, что критические высказывания в тазкирах представляют собой не субъективные оценки, а важное средство формирования духовно-нравственных норм в обществе.

**Ключевые слова:** тазкира, критика, нравственная идея, стиль, Навои, Фахри, комментарий, описание, литературное наследие.

**Abstract.** This article analyzes critical judgments found in works belonging to the tazkira genre. The study reveals that the negative evaluations expressed by authors regarding poets are closely connected with their moral and educational views. In addition, the distinctive stylistic features of the great tazkira writers and literary figures, Alisher Navoiy and Faxriy Hiraviy, as well as the forms and content characteristics of their critical expressions, are examined in detail. As a result, the article demonstrates that critical opinions in tazkiras are not merely personal judgments, but rather an important means of shaping spiritual and moral norms in society.

**Keywords:** tazkira, criticism, moral idea, style, Navoiy, Faxriy, commentary, description, literary heritage.

Sharq adabiyotida tazkira janri nafaqat biografik, balki axloqiy-estetik qarashlarni ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. “Latoyifnoma” ana shu janrning yetuk namunalaridan bo‘lib, unda shoirlarning hayoti bilan bir qatorda ularning shaxsiy fazilatlari ham baholanadi. “Latoyifnoma”dagi asarlarda tanqidiy fikrlarning mavjudligi ularning ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki bu tanqidlar orqali muallif jamiyatda mavjud bo‘lgan axloqiy me’yorlarni targ‘ib

MUNIS DEVONIDAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY TUSHUNCHALARNI ANGLATUVCHI SO‘ZLAR Ixtiyorova Durdona	178
AKA-UKA GRIMM ERTAKLARIDA “O‘GAY ONA” MOTIVI Rustamov Orifjon Mirzokulovich	180

## II SHO‘BA

### QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKNING JAHON ESTETIK TAFAKKURIDAGI O‘RNI

LITERARY RELATIONS BETWEEN THE PEOPLES OF THE GREAT SILK ROAD (based on the example of chinese and uzbek literature) Musurmanov Erkin Rabbimovich, Rustamova Zuhra Turayevna	185
TÜRKİYE’DE KORE EDEBİYATI ÇEVİRİLERİ VE HAN KANG ETKİSİ S.GÖKSEL	190
TÜRKİYE’DE KORE EDEBİYATI ÜZERİNE AKADEMİK ÇALIŞMALAR VE ÇEVİRİLER ÜZERİNE BİR İNCELEME HATİCE KÖROĞLU TÜRKÖZÜ	195
CHUXE KIM VA TOG‘AY MUROD ROMANLARIDA DAVR MUHITI TASVIRI Umida SAYDAZIMOVA	200
TAZKIRALARDA TANQIDIY YONDASHUV VA BADIY VAHOLASH MEZONLARI (“LATOYIFNOMA” MISOLIDA) Bobur QURBONOV	203
СПРАВНИТЕЛЬНАЯ ТИПОЛОГИЯ ЖЕНСКИХ ПЕРСОНАЖЕЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ И В ЦИКЛЕ А.С.ПУШКИНА «ПОДРАЖАНИЯ КОРАНУ» Мусурманов Эркин Раббимович, Валиходжаева Фарруха Батировна	206
LI MUNYOL IJODIDA QIYOFADOSH XARAKTERLAR TALQINI Karimov Nodirbek Shuxrat o‘g‘li	210
УНИВЕРСАЛЬНЫЕ ПОНЯТИЯ И ТИПОЛОГИЧЕСКИЕ СХОДСТВА В ЛИТЕРАТУРНЫХ ТЕКСТАХ Маматкулова Халида Ахтамовна	214
KOREYS VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA SHAXS KONSEPTINING MADANIY VA KOGNITIV QIYOSI Elmuratova Umida Mamadiyorovna	217
THE SPECIFIC FEATURES OF THE CHRONOTOPE IN GUY DE MAUPASSANT’S SHORT STORY BOULE DE SUIF Qarshibayeva Uljan Davirovna, Kholmanova Shokhsanam Qobiljon qizi	221
TUSH YASOVCHI SYUJETNI BADIY TALQINI: HAN KANGNING “VEGETARIAN” VA NAZAR ESHONQULNING “GIRYON” ROMANLARI MISOLIDA Aziza SOLEYEVA	223
JAHON DRAMATURGIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOYILLAR: SHEKSPIR VA HAMZA IJODINING QIYOSIY TAHLILI Osiyo Siddiqova Normurod qizi	225
INTERTEXTUAL MARKERS AS BRIDGES BETWEEN EASTERN AND WESTERN POETICS: A COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS Bozorova Dilshoda	228

UO‘K: 82.091:821.531

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SHARQ VA G‘ARB ADABIY ALOQALARI VA QIYOSIY  
ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**2026-yil 23-may**

**Samarqand – 2026**

**Bosh muharrir: E.R. Musurmanov**

**Mas’ul muharrir: S.S. Saydazimova**

Bosmaxona tasdiqnomasi:



4268

Bosishga ruxsat etildi: 21.05.2025-yil.  
Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>8</sub>.  
«Times New Roman» garniturası. Raqamli bosma usuli.  
Hisob nashriyot t.: 67,5. Shartli b.t.: 66,39.  
Adadi: 100 nusxa. Buyurtma № 21/04.

---

SamDCHTI tahrir-nashriyot bo‘limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Gagarin ko‘chasi, 43.